
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 2 iyundagi PQ - 91 son "Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2005 yil 14 iyun 130-son "Oliy ta'lim muassasalari filiallari to'g'risidagi namunaviy Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i hamda O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligining 2005 yil 21 iyul 07-8/2015-son taqdimnomasini amalga oshirish maqsadida 2005 yil 23 iyuldan Farg'ona shahrida Toshkent axborot texnologiyalari universitetining mintaqaviy filiali sifatida tashkil etilgan.

Filialda jami 85 ta professor-o'qituvchi faoliyat ko'rsatib, shundan: 22 nafar fan nomzodi hamda 63 nafar ilmiy daraja va unvonga ega bo'lmagan pedagoglar faoliyat ko'rsatadilar. O'qituvchilar safida kafedra professorlari: dotsentlar D.Halilov, N.Usmonov va boshqalarning nomlarini alohida hurmatga sazovor bo'lib, talabalarga chuqur bilim beradilar.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali quyidagi yo'nalishlar bo'yicha bakalavrlar tayyorlaydi:

- Kompyuter injiniringi (Kompyuter injiniringi)
- AKT sohasida kasb ta'limi
- Telekommunikatsiya texnologiyalari
- Xizmat ko'rsatish texnikasi va texnologiyasi (elektron va kompyuter texnikasi)

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali quyidagi mutaxassisliklar bo'yicha magistrlar tayyorlaydi:

- Kompyuter injiniringi ("Kompyuter injiniringi tizimlarini loyihalash")
- Kasb ta'limi (axborot va multimedia texnologiyalari bo'yicha)

Ilmiy - tadqiqot ishlari

Filialda 2010-2017 yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlash rejasi ishlab chiqilgan. Mazkur reja asosida ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda. Ilmiy tadqiqot ishlari natijasi sifatida professor-o'qituvchilar tomonidan 25 ta elektron ishlanma, 29 ta elektron darslik, 40 dan ziyod taqdimot, virtual laboratoriya uchun 15 ta stend tayyorlangan. Bundan tashqari, 4 ta O'zbekiston Davlat patenti olindi, 2 ta ilmiy monografiya yozildi, 190 dan ziyod ilmiy maqolalar va maqola tezislari e'lon qilindi. Maqolalarning ko'pchiligi xorijiy davlatlar ilmiy nashrlarida chop etilgan.

Bituruvchilar ish faoliyati

Filialda 2012-2013 o'quv yili yakunlanishi bilan 279 nafar bituruvchilarga hayotga yo'llanma berildi. Ular mamlakatimizda axborot kommunikatsiya texnologiyalari, xalq ta'limi, oliy ta'lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari, bank va moliya tuzilmalarida faoliyat yuritadilar.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali murojaat ma'lumotlari:

Direktor: professor Rasulov Akbarali Maxamatovich

Manzil: Farg'ona shahar, 150118, Mustaqillik ko'chasi, 185-uy

Telefon: (73) - 226-82-09

Faks: (73) - 226-82-09

Veb sahifa manzili: www.tatuff.uz

E-mail: info@tatuff.uz